



**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMDA
NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING
PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

**Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchilari
Turdiyeva Xayriniso Aliyevna,
Fayziyeva Hurriyat Baxtiyor qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Tibbiy va jamoat salomatligi yo'nalishidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar - nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishlar, amaliy mashg'ulotlarning yetarli darajada samarali tashkil etilmasligi hamda kompetensiyalarning to'liq shakllanmasligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, fanlararo integratsiya, simulyatsion mashg'ulotlar va interfaol ta'lim metodlari nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlovchi asosiy pedagogik mexanizmlar sifatida asoslab beriladi. Maqola natijalari sog'liqni saqlash ta'limi sifatini oshirish, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash ta'limi, nazariya va amaliyot uyg'unligi, pedagogik mexanizm, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion ta'lim.

Annotation: This article analyzes the pedagogical mechanisms for ensuring the integration of theory and practice in health-oriented education. The study highlights the key challenges in vocational and secondary specialized medical education, including the gap between theoretical knowledge and practical skills, insufficient organization of practical training, and incomplete formation of professional competencies. The research substantiates competency-based education, practice-oriented learning, interdisciplinary integration, simulation-based training, and interactive teaching





methods as effective pedagogical mechanisms for strengthening the connection between theory and practice. The findings of the study contribute to improving the quality of healthcare education and enhancing the professional readiness of future specialists.

Keywords: healthcare education, integration of theory and practice, pedagogical mechanisms, competency-based approach, practical training, simulation learning.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические механизмы обеспечения интеграции теории и практики в образовании, ориентированном на сферу здравоохранения. Анализируются основные проблемы подготовки специалистов в системе среднего специального медицинского образования, такие как разрыв между теоретическими знаниями и практическими навыками, недостаточная эффективность практических занятий и неполное формирование профессиональных компетенций. Обоснованы компетентностный подход, практико-ориентированное обучение, междисциплинарная интеграция, ассимиляционное обучение и интерактивные методы как ключевые педагогические механизмы обеспечения единства теории и практики. Результаты исследования направлены на повышение качества медицинского образования и профессиональной подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: медицинское образование, интеграция теории и практики, педагогические механизмы, компетентностный подход, практическое обучение, ассимиляционное обучение.

Zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimi malakali, tezkor qaror qabul qila oladigan, kasbiy vaziyatlarga moslasha oluvchi mutaxassislarni talab etadi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash esa, avvalo, taʼlim tizimida nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalarning uzviy bogʻliqligini taʼminlash bilan chambarchas bogʻliqdir. Ayniqsa, jamoat salomatligi, feldsherlik, hamshiralik kabi yoʻnalishlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun nazariya va amaliyot uygʻunligi kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonini hisoblanadi.

Pedagogik tajribalar shuni koʻrsatadiki, nazariy jihatdan puxta bilimga ega boʻlgan, ammo amaliy faoliyatga yetarli darajada tayyor boʻlmagan bitiruvchilar sogʻliqni saqlash muassasalarida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bois, sogʻliqni





saqlash sohasiga yo‘naltirilgan ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotning maqsadi sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- sog‘liqni saqlash ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligining pedagogik mohiyatini ochib berish;
- nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishlarga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash;
- ilg‘or pedagogik mexanizmlarni tahlil qilish;
- amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Sog‘liqni saqlash ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligining pedagogik mohiyati - nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’lim oluvchining olgan bilimlarini real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya tushunchalarining izchil rivojlanishini taqozo etadi. Sog‘liqni saqlash sohasida ushbu uyg‘unlik bemor xavfsizligi va xizmat sifati bilan bevosita bog‘liqdir.

Keeling, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlovchi pedagogik mexanizmlar ustida to‘xtalamiz:

Kompetensiyaviy yondashuv: talabalarda kasbiy faoliyatni mustaqil bajarish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim: Amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyotlari va laboratoriya ishlari nazariy bilimlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘quv rejalari bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etilishi lozim.

Simulyatsion mashg‘ulotlar: Simulyatsion ta’lim texnologiyalari real tibbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Fanlararo integratsiya: Pedagogika, tibbiyot va axborot texnologiyalarining integratsiyasi nazariya va amaliyot uyg‘unligini kuchaytiradi.





Interfaol ta'lim metodlari - Case-study, muammoli ta'lim va loyihaviy ta'lim metodlari talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi pedagogik mexanizmlarni tizimli joriy etish sog'liqni saqlash ta'limi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va amaliy faoliyatga moslashuvi kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash zamonaviy pedagogik mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlarni ta'lim jarayoniga izchil joriy etish sog'liqni saqlash tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

